

Neft maxsulotlarini yetkazib berish to‘g‘risida

SHARTNOMA №- 9

Kitob tumani

“26” januari 2022y.

“Qarshi neft bazasi” MCHJ (tashkilot, korxona nomi) keyingi o‘rinlarda “Ta’mintonchi” deb yuritiladi. O‘zining nizomi (ustavi, ishonchnoma) asosida ish yurituvchi I.Qilichov (vazifasi, familiyasi, ismi) nomidan, bir tomondan va Viloyat Bolalar uyi(korxona, tashkilot, muassasa nomi), keyingi o‘rinlarda “Istemolchi” deb yuritiladi, O‘zining (nizomi, ustavi, ishonchnoma) asosida ish yurituvchi Vrachi M.A.Karimova (vazifasi, familiyasi, ismi) nomidan, ikkinchi tomondan mazkur shartnomani quyidagilar haqidagi tuzdilar.

1. SHARTNOMA MAZMUNI

1.1.“Ta’mintonchi” “Iste’molchi”ga neft maxsulotlarini A - 80 (spetsifikatsiyada kursatilgani buyicha) yokilgisi bo‘yicha 2022 yilga ajratilgan limitlarga asosan, boshqa neft maxsulotlari turlari bo‘yicha esa “Ta’mintonchi”ning resurs imkoniyatlari va “Iste’molchining talabnomasida ko‘rsatilgan extiyoylariga asosan tuzilgan va tomonlar kelishilgan spetsifikatsiyaga binoan yetkazib berishni o‘z zimmasiga oladi. Tuzilgan spetsifikatsiya va grafik shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi.

1.2.To‘lovlar «Iste’molchi”ning 2022 yilgi harajatlar smetasida ajratilgan mablag‘lardan oshmagan holda amalga oshiriladi.

1.3.Shartnomaning umumiy summasi 2099987.1 (Ikki million tuqson tuqqiz ming tuqqiz yuz sakson etti) sum 10 tiyinni tashkil qildi.

Shartnomaning summasi neft maxsulotlari ishlab chiqaruvchilar tomonidan ishlab chiqilayotgan neft maxsulotlarining narxlari, neft maxsulotini tashish bilan bog‘lik temir yul harajatlari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi va Moliya vazirligi qaroriga asosan o‘zgartirilganda yoki neft maxsulotlari ta’mintoni korxonalarining ustama narxlari o‘zgarganda yoxud narxlar boshqa obyektiv sabablarga ko‘ra o‘zgarganda qayta ko‘rib chiqiladi.

2. MAXSULOT YETKAZIB BERISH TARTIBI VA MUDDATLARI

2.1.Neft maxsulotlari “Iste’molchi”ga ajratilgan limitlar doirasida, “Iste’molchi” taqsimotiga ko‘ra o‘z transportida, markazlashtirilgan tarzda, “Tranzit” bilan yoki yoqilg‘i quyish shaxobchalaridan tarqatish vedomostlari asosida belgilangan tartibda (keraklisini osti chizib qo‘yilsin) yetkazib beriladi.

2.2.Neft maxsulotlarini ortish (olib chiqib ketish) tomonlar kelishgan vaqtida, ortish jadvaliga asosan amalga oshiriladi. Maxsulotni ortish vaqt tomonlar kelishuviga asosan o‘zgartirilishi mumkin.

2.3.“Iste’molchi” neft maxsulotlarini o‘z tasarrufidagi transport vositasi bilan olib ketishda neft maxsulotlarini tashib ketishga qo‘yiladigan barcha talablarga rioya qilishni o‘z zimmasiga oladi.

2.4.“Ta’mintonchi” omboriga maxsulot quyish uchun olib kelingan avtomobil sisternalari 1510-84 davlat standarti talabiga javob bermagan taqdirda avtotsisternalar maxsulot quyishga kiritilmaydi. Mazkur transport vositalarning bo‘sh borib kelishi uchun qilingan harajatlari “Iste’molchi” zimmasiga tushadi.

2.5.Neft maxsulotlari quyilgan avtotsisternalar (“Iste’molchi”nig avtovositalarida olib ketish hollari bundan mustasno) “Ta’mintonchi” yoki uning bo‘limlari tomonidan amaldagi me’yoriy texnik hujjatlarga (1540-84 davlat standarti) mos tarzda tamg‘alanadi. Tamg‘alash “Iste’molchi”ning talabiga binoan amalga oshiriladi.

2.6.“Ta’mintonchi” maxsulot yo‘qligi sababli maxsulotni to‘la bermagan taqdirda, berilmay qolgan maxsulot miqdorini (limiti) keyingi davrda yetkazib berishi shart Agarda maxsuloti yetkazib berilmaganligi “Iste’molchi”ning zarar ko‘rishiga olib kelsa, “Ta’mintonchi” ko‘rilgan zararni to‘laydi.

3. HISOB-KITOB TARTIBI VA NARXLARI

3.1.Ushbu shartnoma o‘zaro hisob-kitoblar uchun asos hisoblanadi.

3.2.“Iste’molchi” olayotgan neft maxsulotlari xaqqini O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2011-yil 24-avgust kunidagi 241-sonli qaroriga asosan quyidagi tartibda xaqjni to‘laydi. Avtobenzin uchun 100%, dizel yonilg‘isi uchun 100% miqdorida va boshqa neft maxsulotlari uchun 30 % oldindan tulovlar amalga oshiriladi. Qolgan qismi 60 kun ichida to‘lanishi shart.

3.3.“Iste’molchi” tomonidan to‘lovlar har oyda, ilova qilingan grafikka asosan harajatlar smetasida ajratilgan mablag‘lar doirasida amalga oshiriladi.

3.4.“Ta’mintonchi” neft maxsulotlarini “Iste’molchi”ga shartnomada kursatilgan narxda sotadi, bunda korxona ustama narxi va temir yul harajatlari hisobga olinadi.

3.5.Neft maxsulotlarining narxi, temir yul harajatlari va korxonaning ustama narxi o‘zgargan taqdirda ushbu shartnomaga kushimcha kelishuv asosida o‘zgartirishlar kiritiladi.

4. QABUL QILISH TARTIBI

, 4.1. Neft maxsulotlarining mikdori va sifati bo‘yicha “Iste’molchi” “Ishlab chiqarish texnika va xalq iste’moli mollarini miqdor (P-6) va sifat (P-7) jixatidan qabul qilib olish tartibi to‘g‘risida yo‘riknomaga hamda boshqa ‘normativ hujjatlarga asosan qabul qilib olinadi.

5. MAXSULOT SIFATI

5.1. Yetkazib beriladigan maxsulot sifati GOST 1510-85 davlat standartlari va texnik shartlariga mos bo‘lishi xamda bu maxsulot ortish va kuzatuvchi xujjalarda qayd etilishi lozim.

6. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

6.1 “Ta’mnotchi” neft maxsulotlarini yetkazib berish muddatlarini kechiktirganligi va o‘z muddatida yetkazib bermaganligi uchun “Iste’mol”chiga majburiyatlar bajarilmagan qismi ustidan 0,5 foiz miqdorida penya to‘laydi, lekin to‘lanadigan penyaning umumiy miqdori yetkazib berilmagan neft maxsulotlari qiymatining 50 foizidan oshmasligi lozim. Penya to‘lash, shartnomaga majburiyatlarini buzgan tomonni neft maxsulotlarini kechiktirib yoki yetkazib berilmaganligi oqibatida yuzaga kelgan zararni to‘lashdan ozod etmaydi.

6.2. Amaldagi qonunchilik va xo‘jalik shartnomasi, standartlar, texnik shartlar, sifat talabi, turlari va assortimentlari bo‘yicha talabga to‘g‘ri kelmagan neft maxsulotlari yetkazib berilganda “Iste’molchi” neft maxsulotlarini qabul qilishdan bosh tortishi, “Ta’mnotchi”dan talab darajasida bo‘lmagan neft maxsulotlari qiymatining 20 foizi miqdorida jarima undirishi, agar maxsulot qiymati to‘langan bo‘lsa, belgilangan tartibda to‘langan mablag‘ni qaytib olish xuquqiga ega. Talab darajasida bo‘lmagan neft maxsulotlari yetkazib berilganligi uchun jarima “Ta’mnotchi”dan akseptsiz tartibda undiriladi.

6.3. Shartnomada belgilangan muddatda olinmagan va neft maxsulotlarini olishdan sababsiz bosh tortganligi uchun “Iste’molchi” “Ta’mnotchi”ga olinmagan maxsulotining umumiy qiymatini 5 foizi mikdorida jarima to‘laydi. Neft maxsulotlari to‘lik olinmagan takdirda “Ta’mnotchi”, jarima undirishdan tashqari, maxsulot olinmaganligi natijasida ko‘rgan zarar qiymatini to‘lashni talab qilishga xaqli. Bunda u mazkur maxsulotning borligiga kafolat berishi lozim.

6.4. To‘lov talabnomasini asossiz ravishda to‘liq yoki qisman rad etganlik uchun “Iste’molchi” “Ta’mnotchi”ga rad etgan o‘scha summaning 15 foizi mikdorida jarima to‘laydi.

Yetkazib berilgan neft maxsuloti to‘lovini 60 kunlik kechiktirib yuborganlik uchun “Iste’molchi” “Ta’mnotchi”ga o‘tkazib yuborilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to‘lov summasining 0,4 foizi mikdorida, ammo kechiktirilgan to‘lov summasining 50 foizidan ortiq bo‘lmagan miqdorda penya to‘laydi.

6.5. Ushbu shartnomada biron-bir shartning bajarilmaganligi uchun javobgarlik belgilanmagan bo‘lsa, u holda mazkur bajarilmagan shartlar uchun javobgarlik O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi va “Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy xukuiy bazasi to‘g‘risida”gi konunga binoan qo‘llaniladi.

7. FORS-MAJOR XOLATLARI

7.1. Agar shartnomaga tuzilgandan so‘ng ikala tomon o‘z majburiyatlarini g‘ayri tabiiy holatlar, suv toshqini, yong‘in, yer qimirlashi va boshqa tabiiy ofatlar sababli bajarmasa xech qaysi tomon to‘la yoki qisman bajarilmagan majburiyatlar uchun javobgar hisoblanmaydilar.

8. QO‘SHIMCHA SHARTLAR

8.1. Ushbu shartnomada nazarda tutilmagan boshqa barcha masalalarni taraflar Fuqarolik Kodeksi va “Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-xuquqiy bazasi to‘g‘risidagi” qonunga amalga qilgan xolda tartibga keltiriladi.

9. NIZOLARNI XAL KILISH

9.1. Taraflar o‘rtasida kelib chiqadigan nizolar amaldagi sud qonun xujjalarda belgilangan tartibda xo‘jalik sudlari tomonidan xal qilinadi.

9.2. Mazkur shartnomaga kiritilgan har qanday o‘zgartirishlar va qo‘shimcha yozma ravishda bo‘lib, har ikki tomon imzolangandan keyingina xaqiqiy hisoblanadi.

9.3. Taraflar o‘rtasida munosabatlardan ular tomonidan mazkur shartnomaning barcha shartlari bajarilgan va hisob-kitob to‘liq tugallangan taqdirda to‘xtatiladi.

9.4. Ushbu shartnomaga ikki tomonlama imzolanib tegishli G‘aznachilik bulinmasidan ruyxatdan utkazilgan kundan boshlab kuchga kiradi va “31” dekabr 2022 yilgacha amal kiladi.

10. TOMONLARNING REKVIZITLARI

“Ta’mnotchi”

“Qarshi neft bazasi” MCHJ

Manzili: Karshi shaxri Shayx Ali kurgon

X/r : 20210000100530160001

Bank nomi: “Uzsanoatqurilishbank” ATB

MFO: 00432

INN: 200672124

IFUT-80190

Rahbar: Nur

“ISTE’MOLCHI”

Viloyat Bolalar uyi

Kitob tumani Istilol kuchasi -54 uy, INN: 200693620

Shxr: 100022860102327073320054003

Markaziy bank BBKKM, MFO-00014

Uzbekiston Respublikasi Moliya

Vazirligi Gaznachiligi INN:201122919

x/r-23402000300100001010

Rahbar: M.A. Karimova M.A.

Shartnomaga shartlari qonun ta’labiga
mos keladi Yurituvchi: M.A. / Karimova M.A.

2022йил «_____» _____ dagi
№-1 sonli shartnomaga
1-sonli Illova/

**2022 yil davomida yetkazib beriladigan neft maxsulotlarini buyicha
SPETSIFIKATSIYA**

Ойла р	Ul ch ov bir ligi	Avtobenzin yoqilgisi “AI-80” markali			Uchoq yoqilgisi			JAMI		
		Miqd ori	Narhi	Summasi	Miqd ori	Narhi	Summasi	Miqd ori	Narhi	Summasi
Yanvar	KG	63.81	10970	699995.7				63.81	10970	699995.7
Fevral	KG	63.81	10970	699995.7				63.81	10970	699995.7
Mart	KG	63.81	10970	699995.7				63.81	10970	699995.7
1-chorak	KG	191.43	10970	2099987.1				191.43	10970	2099987.1
Aprel	KG									
May	KG									
Iyun	KG									
2-chorak	KG									
Iyl	KG									
Avgust	KG									
Sentyabr	KG									
3-chorak	KG									
Oktiabr	KG									
Noyabr	KG									
Dekabrv	KG									
4-chorak	KG									
Hamm asi	KG									

Jami summa: 2099987.1 (Ikki million tuqson tuqqiz ming tuqqiz yuz sakson etti) sum 10 tiyin

“Ta’mintonchi”

“Qarshi neft bazasi” MCHJ

Manzili: Karshi shaxri Shayx Ali kurgon

X/r- : 20210000100530160001

Bank nomi: “Uzsanoatqurilishbank” ATB

MFO: 00432

INN: 200672124

IFUT-80190

Rahbar: _____

ISTE'MOLCHI”

Viloyat Bolalar uyi

Kitob tumani Istilol kuchasi -54 uy, INN: 200693620

Shxr: 100022860102327073320054003

Markaziy bank BBXKKM, MFO-00014

Uzbekiston Respublikasi Moliya

Vazirligi Gaznachiligi INN:201122919

x/r-23402000300100001010

Rahbar: _____ Karimova M.A.

soberet



ul. 100022860102327073320054003